

## MORFOLOGIK HODISALAR SEMANTIKASIDA GRADUAL MUNOSABATLARNING VERBALLASHUVI

Shamatova Moxidilxon Baxodirjon qizi,  
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda morfologik hodisalar semantik-funksional tomonida gradual munosabatlarning verballahuv masalasi kognitiv aspektida tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** morfologik hodisa, semantika, gradual munosabat, gradual zanjir, verballahuv, oraliq birliklar, ziddiyatlar.

Tilda gradual munosabat tushunchasi ikki sath birliklari misolida atroficha tadqiq etilganligi fanga ma’lum. CHunonchi, fonetik-fonologik sath birliklari orasidagi *fonologik ziddiyatlar* tadqiqi[6] va tilning leksik-semantik tizimidagi alohida munosabat turi – *darajalanish* termini ostida bir qancha monografik tadqiqotlar[Bozorov O, 1:24: Orifjonova Sh, 5;10] amalga oshirilgan.

Professor N.Trubetskoy tomonidan ta’kidlanganidek, fonologik ziddiyatlar tushunchasi zamirida, fonemaning mazmuni ushbu fonemaning fonologik sistemada tutgan o’rni, unga qaysi fonemalar qarama-qarshi qo‘yilgani bilan aniqlanadi [7].

Anglashiladiki, har bir fonemaning mazmunini tashkil etuvchi muhim belgilar ziddiyat nuqtai nazaridan tasniflanganda, yoki fonemalar ularning oralaridagi nutq egasi ta’sirida kognitiv-mantiqiy [Yigitaliyev U, 2:154] munosabatlар bo‘yicha tasniflanganda *privativ, gradual* va *ekvipotent* ziddiyatlar yuzaga keladi.

Morfologik sistemada gradual-zanjirli munosabatlarni yoritish bevosita fonologik graduonimiyaga o‘xshab ketadi. V.Reformatskiy fikricha, dixotomik tasnif muammosi bilan bog‘liq[10]. Bu tasnif rus tilshunosi V.Reformatskiy tomonidan fonologik tadqiqotlar uchun yaratilgan bo‘lsa-da, biroq morfologik tadqiqotlarda ham tatbiq etilishi mumkin. Biz ishda buni ko‘rib o‘tishga harakat qilamiz.

Haqiqatan ham, morfologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar bu tizim qurilishi faqat qarama-qarshi tomonlardangina iborat bo‘lb qolmay, zidlanuvchi (farqlanuvchi) tomonlarni o‘zaro birlashtiruvchi oraliq birliklar, oraliq uchinchilarga ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, prof. H.Ne’matovning asarida[Nigmatov X, 4:32] morfologik tizimning yaxlitligi, uning uzluksiz qurilishga, tadrijiy bog‘lanishlarga egaligi masalalari ham talqin etildiki, bular o‘z

navbatida, morfologik sathda gradual zanjarilar mavjud ekanligiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur ilmiy axborotda ikki zid (farqlanuvchi) tomonlarni birlashtiruvchi oraliq hodisalarga ham maxsus tarzdagi gradual zanjirlar xos, deb qaraymiz. Zero, bunda ham uch tashkil etuvchi (ikki zid va oraliq holat) orasidagi munosabatlar ma’lum belgining miqdoriy o‘zgarishiga asoslanadi.

Darhaqiqat, morfologiya tadqiq ob’ektlaridan asosiy yarusi sifatida so‘z turkumlari tasnifi masalasi turadi. Shuning uchun ham, dastlab, so‘z turkumlari tasnifida gradual zanjirlar munosabatini ko‘rib o‘tamiz. Ma’lumki, so‘z turkumlari an’anaga ko‘ra semantik, morfologik va sintaktik belgilari bo‘yicha tasnif etiladi. SHunday ekan, so‘z turkumlarining o‘zaro bog‘lanishi, bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, mavqelaridagi gradual jarayonlarni ham eslatilgan uch belgining har biri asosida tadqiq etish mumkin.

Semantik belgi bo‘yicha olib qaralganda hukmron darajadagi mavqeni ot (“predmetlik”) egallaydi. Zero, so‘z turkumlari tizmining mazmun ko‘lami aslida kategorial predmetlik belgisining unga aloqador bo‘lgan boshqa kategoril belgilari bilan turli mavqe gradual zanjirli bog‘lanishlardan iborat. Jadvalga qarang:

<b>Ot (predmetlik)</b>	(“predmet+ belgi”)	<i>Sifat</i> )
	(“predmet+ miqdor”)	<i>Son</i>
<b>Fe’l (“harakat”)</b>	(“harakat”)	<i>Fe’l va uning shakllari (“harakat va holat”)</i>
	(“harakat belgisi”)	<i>Ravish (“harakat va uning belgisi”)</i>

Yuqoridagi jadvalda olmosh turkumi kiritilmaganligining boisi shundaki, u boshqa turkumlar singari borliqni bevosita in’ikos ettiruvchi kategorial ma’no tipiga ega emas. Olmoshning denotati nutq bo‘lganligi uchun uning kategorial ma’nosini ham nutqiy ishora qilish, ko‘rsatishlarni o‘zida abstraktsiyalagan (invariantlangan) semantika tipidir. Olmosh – bevosita va bilvosita barcha so‘z turkumlari, shuningdek, so‘z birikmasi, gap, matn kabilar o‘rnida ham qo‘llana oluvchi morfologik hodisa sanaladi. Boshqacha aytganda, ularni ko‘rsatuvchi turkum.

Demak, olmoshlar gradual zanjir tizimiga *o‘zi aloqador bo‘lgan so‘z turkumi* bilan hamrohlikdagina mansub bo‘la oladi. Jadvalga qarang:

	<b>olmosh</b>	~	<b>olmosh</b>	~	<b>olmosh</b>
	‘		‘		‘
	<b>ot</b>	~	<b>sifat</b>	~	<b>son</b>
	‘				
<b>olmosh</b>	~	<b>fe’l</b>			
‘		‘			
<b>olmosh</b>	~	<b>ravish</b>			

Mazkur jadvalga ranglar kesimida e’tibor berilsa, “*olmosh ~ ot*” va “*olmosh ~ fe’l*” grammatik integratsiyasida aloqadorlik to‘liqroq aks etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari ushbu kategorial semantik va gradual zanjirning mavqelanish tizimiga diqqat qilsak, unda otdan sifat orqali songa va otdan fe’l orqali ravishga borilishini, bunda, bir tomondan, ma’no hajmining (semalar majmuasining) kamayib, ikkinchi tomondan, abstraktlikning kuchayib borayotgan gradual zanjirini ko‘rishimiz mumkin.

Alovida guruhi tashkil etuvchi modal, undov, taqlid so‘zlar majmuasining mustaqil va yordamchi so‘zlar guruhlari oralig‘idagi uzbek ekanligi hammaga ma’lum. Bu oraliq uzbek guruhi tarkibiga semantik belgi nuqtai nazaridan qaralsa, aavalos, modal va undov so‘zlar orasidagi yaqinlikni, bog‘lanishni ko‘rish mumkin. Mazkur jarayon modal so‘zlarning sub’ektiv munosabat ifodalashi va his-hayajon undovlarining ham salbiy yohud ijobjiy munosabat anglatib tura olishlarida ko‘rinadi. Bu holat alovida ilmiy tadqiqni talab etadi. Shuning uchun bunga maxsus to‘xtalishga ehtiyoj yo‘q, deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar:

- Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. DDA, –T. 1997.
- Umidjon Yigitaliyev. “Shaxs” lisoniy zarrasining fonetik-fonologik tizimda voqelanishi (*mohiyat-hodisa dialektikasi aspektida*)// FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (Buxoro davlat universiteti, 2021-yil 22-noyabr). –Buxoro, 2021. –B. 154-155.

3. Umidjon Yigitaliyev. O‘zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoreferati. – T., 2020. – 54 b.
4. Нигматов Х.Г. Включённое третье в морфологической системе тюрских языков (к постановке вопросы) // Журнал: СТ. – Баку, 1976. – № 3 – С. 31-36.
5. Orifjonova SH. O‘zbek tilida lug‘aviy darajalanish. NDA. –T., 1996.
6. <https://core.ac.uk/download/pdf/162464962.pdf>
7. <http://slavcenteur.ru/Proba/knigohran/Trubetzkoy.pdf>
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5842>
9. <https://media.neliti.com/media/publications/343911-cognitive-analysis-of-morphological-phen-6cbde1c9.pdf>
10. [https://www.bsu.ru/content/page/1415/hecadem/reformatsky\\_aa/reformatsky](https://www.bsu.ru/content/page/1415/hecadem/reformatsky_aa/reformatsky)
11. <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/download/1308/1212>
12. <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/hp/article/download/7241/4947>
13. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/788>